



JOURNAL OF
NATURAL SCIENCE

№ 4(9)2022



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц. Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц. Масъул котиб- Ш Урозов</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	<ol style="list-style-type: none">8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	<ol style="list-style-type: none">15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	<ol style="list-style-type: none">17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	<ol style="list-style-type: none">19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц22. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspu.uz](http://www.natscience.jspu.uz)

Xojiyeva Sarvinoz Sadridinovna

JDPU Kimyo va uni o'qitish
metodikasi kafedrası o'qituvchisi
sarvinoz.xojiyeva1987@gmail.com

Kalit so'zlar: moslashuvchan ta'lim, zamonaviy ta'lim, masofaviy ta'lim, internatsionallilik, video va audio texnologiya

Annotasiya: Maqolada ta'lim turlari, keng qamrovlilik, yoshlarning zamonaviy ta'lim olishida moslashuvchan ta'lim, masofaviy ta'lim, hamda zamonaviy texnologiyalarning o'rni haqida so'z yuritilgan.

Ключевые слова: гибкое обучение, современное образование, дистанционное обучение, интернационализм, видео и аудиотехнологии.

Аннотация: В статье рассматриваются виды обучения, комплексность, гибкое обучение в современном образовании молодежи, дистанционное обучение, а также роль современных технологий.

Keywords: flexible education, modern education, distance learning, internationalism, video and audio technology

Abstract: The article discusses the types of education, comprehensiveness, flexible education in modern education of young people, distance learning, as well as the role of modern technologies.

Hozirgi globallashuv davri bo'lmish XXI asrda yoshlarga ta'lim berish va ta'lim olish jarayoniga alohida e'tibor berilayotgani hech kimga sir emas. Bugungi kunda har qanday ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama barkamol va yetuk, irodali, o'zining mustaqil fikriga ega, o'tkir zehnli, fidoiy hamda tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilayapti. Bu borada olib borilayotgan islohatlarda esa ta'lim turlari to'g'risida mutlaqo yangi qoidalar tobora hayotga keng joriy etilyapti.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi bo'lib qolgan axborot texnologiyalarini ta'limda qo'llash masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Kompyuter, telekommunikatsiya va tarmoq vositalari jiddiy ravishda axborotni

o'zlashtirish usullarini o'zgartirib, o'qitish maqsadlarini egallashda va ularga yetishishda katta rol o'ynamoqda.

So'nggi yillarda yurtimizda kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning huquqiy -me'yoriy asosi yaratildi. Ta'lim-tarbiya jarayoning uzluksiz jadal suratda rivojlanishi kelajak avlodni barkamol bo'lib yetishib chiqishining asosiy omillaridan biridir. Shu jumladan jamiyatimizdagi ta'lim oluvchi o'quvchi va talabalar uchun ta'limiy muhitni yaratib berishda yoshlarning ijtimoiy huquqiy huquqlari asos bo'lib xizmat qiladi. Bu borada ta'lim turlari to'g'risidagi mutlaqo yangi qoidalar hayotga joriy etildi. Hozirda ta'lim jarayoniga ana'naviy va noan'anaviy tushunchalar bilan birga ta'lim olishning insonlar uchun qulay va zamon talabidan kelib chiqqan holda paydo bo'lgan yangidan yangi zamonaviy tushunchalar ham kirib kelmoqda. Bular quyidagilar:

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini o'zaro almashuvchi vositalarga asoslangan ta'lim turidir. Bunda axborotlarni, ya'ni ta'limda yangi kashf etilgan yangiliklarni, ixtirolarni, yoki ma'lum bir mavzuning eng oson o'rganish hamda o'rgatish usullarini yaqin masofa bo'ylab yoki butun dunyo bo'ylab juda tez va qisqa fursatda o'zaro almashinish imkoniyatini beradi. Masofaviy ta'lim turida o'qituvchi maxsus axborot muhiti yordamida, aholining barcha qatlamlari hamda chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim jamlanmasidir.

Masofaviy o'qitish ta'lim tizimi– bu eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, shuningdek o'qitish vositalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim turidir.

Masofaviy o'qish ta'limi– bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim turidir. Bu ta'lim turi ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bu ta'lim turida o'qish ya'ni bilim olish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

O'qituvchining yangi roli – masofaviy o'qitish ta'lim tizimida o'qituvchining o'qitish jarayonidagi asosiy vazifasini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Bu ta'limda o'qituvchi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish jarayonini o'zaro muvofiqlashtirishi, yangi kashf etilgan ixtirolar, yangiliklar va innovatsiyalarga mos

ravishda berayotgan fanini muntazam ravishda mukammallashtirib borishi, bilim saviyasi va o'zining ijodiy faoliyatini yanada chuqurlashtirishi talab etiladi.

Masofaviy ta'lim tizimining sifati – masofaviy usulda ta'lim olish usuli ta'lim berish sifati bo'yicha kunduzgi ta'lim turidan qolishmaydi. Balki, masofaviy ta'lim olish usulining bir qancha afzallik tomonlari ham bor. Masalan ta'lim jarayonida chet ellik tajribali dars beruvchi o'qituvchilarni jalb qilib, ulardan ta'lim olishning eng qulay vaqtda va kamxarj, hamda aniq bir joyda bo'lish talab etilmaydigan eng qulay usulidir. Bu ta'lim jarayonida eng yangi yaxshi o'quv-metodik darsliklardan foydalangan holda ta'lim berish o'quv jarayonining tashkil etish sifatini oshirishi mumkin.

Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'limdan quyidagi o'ziga xos xususiyati bilan farq qiladi:

Moslashuvchanlik – bu ta'lim jarayonida ta'lim oluvchiga o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta'lim olish imkoniyatlarining mavjudligidir. Sotsiologiya fanida “Moslashish” so'zi “O'z-o'zini tashkil etuvchi tizimlarning o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga moslashish jarayoni” deb tariflangan. Moslashish tushunchasini yana turli xil ijtimoiy vositalar yordamida o'zgaruvchan muhitda shaxsning faol moslashuvi jarayoni sifatida tasavvur qilishimiz ham mumkin. Psixologiya fani doirasida esa “moslashish” so'zi insonning atrof-muhit omillari va yashash sharoitlari majmuiga moslashishining ko'p bosqichli jarayonini bildiruvchi psixologik-pedagogik, ijtimoiy tushunchadir. Moslashuvchan ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli moslashish alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning o'sishi va rivojlanishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi va bolalarda umumiy va kasbiy fanlar doirasida ta'limiy muhitda o'zlashtirish, ijtimoiy munosabatlarga oson qo'shilishi uchun imkoniyat yaratadi. [1.257-b.]

Keng qamrovlilik – Ko'p sonli ta'lim oluvchilarning bir vaqtning o'zida katta va keng qamrovli o'quv imkoniyatlariga ya'ni elektron kutubxona, ma'lumotlar va bilimlar bazasi hamda boshqa zahiralarga murojaat qila olishi, yoki ega bo'lishiga aytiladi. Bu esa ko'p sonli ta'lim oluvchilarning kommunikatsiya vositalari yordamida o'zaro va o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish imkoniyatini beradi.

Internatsionallilik –Ta'lim sohasida erishilgan yutuqlardan oqilona foydalanib erishilgan natijalardan jahon standartlariga javob beradigan ma'naviy va moddiy boyliklarni import va eksport qilish imkoniyati.

Parallellik – bu o'quv va ta'lim olish faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyatining borligidir.

Modullilik – Bir biriga bog`liq bo`lmagan mustaqil o`quv kurslari to`plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o`quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi. [3.44-b.]

Video va audio texnologiya – o`quvchi va talabalarning ta`lim olish jarayonida o`quv-metodik ma`lumotlarni zamonaviy texnologiya, hamda televideniye vositasi yordamida yetkazishga xizmat qiladi va tashqi aloqali ixtiyoriy interaktiv usullarning biri bilan aloqa o`rnatishga asoslangan bo`ladi. Buning uchun maxsus texnikalar, yuqori tezlikga ega bo`lgan aloqa kanallari, hamda o`qitishni tashkil qilish uchun xizmat ko`rsatuvchi o`qituvchi va mutaxassislarni jalb etish talab etiladi.

Hozirda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o`zgarmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda biz kuchli iqtisodiyotga ega bo`lgan, ezgu istiqbolli, hamda kelajagi porloq bo`lgan huquqiy davlat qurishimiz uchun, xalqimizning axborot savodxonligini hamda huquqiy madaniyatini oshirish, eng avvalo esa yoshlarning to`g`ri va puxta ta`lim-tarbiya olishi hayot va zamon talabi ekanligini unutmasligimiz lozim.[4.282-b.]

Xulosa qilib aytganda oliy ta`lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarni nafaqat texnik imkoniyatlaridan, balki ularning intellektual imkoniyatlaridan foydalanish, ta`lim muassasi jihatidan har bir alohida ta`lim oluvchiga moslashtirilgan o`quv tizimini vujudga keltirish, unga moslashtirilgan ta`lim jarayonini tashkil qilish imkoniyatini yaratib berish, ishlab chiqarish jarayonidan ajralmagan holda masofaviy ta`limni joriy etish bugungi kunda barcha sohalarda malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonini izchillik bilan tashkil etilishini ta`minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.Shukurova. Ixtisoslashtirilgan ta`lim tizimida moslashuvchan ta`lim muhiti asoslari. *Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 7 (2021) / ISSN 2181-1415.C.257*
2. Yakhshieva, Z. Z. *Khozhiyeva S. S.* (2019). Amperometric titration of mercury (II) with mpcmededtc solution in dimethyl sulfoxide. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (9-10).
3. Sharipov Sh.R., Xojiyeva S.S. (2021). Maktabda kimyoviy eksperimentlar o`tkazishning ilmiy-pedagogik asoslari. *Журнал естественных наук*, 1(5). 2021. C.42-51.(10)
4. Sharipov Sh.R., Xojiyeva S.S., Abduvaliyeva K. Kimyoviy eksperimental tajribalar o`tkazishning metodologik asoslari. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. International scientific-online conference. Canada 2021.C.281-290*

5. Yaxshiyeva, Z. Z., Xojiyeva, S. S., & Qurbonova, D. S. (2021). Analitik kimyodagi amperometrik titrlash usulining afzalliklari. *Science and Education*, 2(5), 18-23.
6. X.S.Sadridinovna Eksperimental masalalar yechishning aqliy tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati. Журнал естественных наук 3 (5), 2021. 66-68.
7. X.S.Sadridinovna, R.Moxidil. Eksperimental masalalar yechish ko'nikma va malakasini shakllantirish. Журнал естественных наук 1 (5). 2021. С.313-315